TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 3 - noyabr 450-10-141-Q/22 Parkent tuman hokimligi

Parkent tumanida 2022-yil Manzilli dasturiga kiritilgan Parkent tumani Qo‘rg‘ontepa mahalla fuqarolar yig‘inida yangilangan namunaviy loyihalar asosida qurilishi tugallangan uy-joy binolari obyektini foydalanishga qabul qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6186-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, Parkent tumanida 2022-yil Manzilli dasturiga kiritilgan Parkent tumani Qo‘rg‘ontepa mahalla fuqarolar yig‘inidagi 1 ta 5 qavatli 2,3 xonali 20 xonadonli yangilangan namunaviy loyihalar asosida qurilishi tugallangan 2-sonli uy-joy binosi obyektini foydalanishga qabul qilish bo‘yicha tuzilgan “Davlat qabul xay’ati”ning 2022-yil 20-oktyabrdagi dalolatnomasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-,25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Parkent tumanida 2022-yil manzilli dasturiga kiritilgan Bosh pudratchi “PARITETINVEST” MChJ tomonidan Parkent tumani Qo‘rg‘ontepa mahalla fuqarolar yig‘inidagi 1 ta 5 qavatli 2,3 xonali 20 xonadonli (1-,2-,3-,4-,5-,6-,7-,8-,9-,10-,11-,12-,13-, 14-,15-,16-,17-,18-,19 hamda 20-sonli xonadon) yangilangan namunaviy loyihalar asosida qurilishi tugallangan uy-joy binolari obyektlarini foydalanishga qabul qilish bo‘yicha tuzilgan “Davlat qabul xay’ati”ning 2022-yil 20-oktyabrdagi dalolatnomasi tasdiqlansin.

2. Qurilishi tugallangan uy-joy binolari obyektlari foydalanishga qabul qilinsin hamda uy-joy egalari uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi berilsin.

3. Ushbu qarorning 1-bandi asosida, Buyurtmachi “Qishloq qurilish invest” MChJ Toshkent viloyati filiali va Bosh pudratchi o‘rtasida qurilishi tugallangan uy-joylarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari rasmiylashtirilsin. Shuningdek, Buyurtmachi tomonidan yakka tartibdagi quruvchi fuqaroga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida uy-joylar topshirilsin.

4. Uy-joy egalari bir oy muddatda qabul qilib olgan uy-joyga mulk huquqiga ega bo‘lishi uchun Davlat kadastr palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Parkent tuman filiali F.Jo‘raboev bilan birgalikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini hamda uy-joyga biriktirilgan banki filialiga uy-joyga mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xujjatning nusxasini taqdim etilishini ta’minlasinlar.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Shoaxmedov**